



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI




No9
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 158 sahifa,
2-sentyabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayeva X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktabgacha ta'lim tashkiloti innovatsion faoliyatini rivojlantirish jarayoni.....	14
Ibragimova Gulsanam Nematovna	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim metodikasida qo'llanilishi va o'qituvchi kompetentligiga ta'siri	22
Abduyev Sheroz	
Boshlang'ich ta'limda "tabiatshunoslik" fanini raqamli platformalar orqali o'qitish metodikasini takomillashtirish: 5e modeli asosida dizayn, baholash va joriy etish.....	25
Ahmadaliyev Shohruh Bahromjon o'g'li	
Ingliz va rus leksikografiyasida o'zbek milliy taom nomlarining lingvistik tahlili	30
Bobojonova Zarina Rashidovna	
Rahbarlarda til bilish darajasi va hissiy intellekt (eq): o'zaro bog'liqlikni o'rganish	34
Isaqulova Baxtigul Xo'jamovna	
Frazeologizmlarni o'rgatishda matn asosida integratsiyalashgan dars modeli: xorijiy til o'rganuvchilar tajribasi	38
Jumayeva Sadbarg Mirolimovna	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari: rivojlangan davlatlar tajribasi tahlili	42
Karimova Moxichehra Rixsibayevna	
Rus va ingliz tillarida sharqona realiyalarning leksik-semantik tasnifi	46
Kulmamatova Aziza Do'stmamat qizi	
TRIZ metodikasi asosida texnokratik bolalar bilan ishlash tizimini takomillashtirish	50
Orifjonova Mavludaxon Abduqaxxor qizi	
Raqamli ta'lim muhitida pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish.....	53
Raximberganova Munajat Muzaffar qizi	
Structure of Social Conflict and Stages of its Development	57
Zaynutdinova Shahnoza Yuldashevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini baholash va rag'batlantirish tizimini takomillashtirish.....	60
Abduraxmonova Nigoraxon Akramali qizi	
Expression of National Mental Characteristics in the Uzbek Lullaby.....	64
Alimbayeva Shaxlo Tursunovna	
Bo'lajak "texnologiya" fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetentlikni rivojlantirish tizimining pedagogik zarurati	69
Avazov G'oyibnazar Berdiyevich	
Bo'lajak tarbiyachilarda integratsiyalashgan ta'lim faoliyatini rivojlantirish orqali kommunikativ salohiyatini shakllantirish	72
Baratova Yulduz Asadullayevna	
Umumta'lim maktablarida molekulyar fizikani o'qitishning hozirgi holati	76
Boymirov Sherzod Tuxtayevich, Xudoynazarova Visola Musurmonqul qizi	
Ingliz tilini o'qitishda talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini akt vositasida rivojlantirish	80
Ergasheva Sevaraxon Ravshanjon qizi	
Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish istiqbollari.....	84
O'rinova Feruzaxon O'ljayevna, Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi	
IIV litsey o'quvchilarining liderlik kompetensiyasini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari.....	90
Gadoyeva Dildora Baxtiyorovna	
Improving the System of Human Resource Capacity Management in Higher Education Institutions: Evidence from Uzbekistan	98
Imomov I., Umirova D.	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni mantiqiy va tanqidiy fikrlashga o'rgatishning zamonaviy usullari.....	104
Iskandarova Munisa Bahodir qizi	
Tarbiyachi-pedagoglarning emotsional kompetensiyasini rivojlantirish	107
Jovmirzayeva Nargiza Quvondiqovna	



Maktabgacha ta'lim yoshdagi giperaktiv bolalarga ta'lim berishning pedagogik-psixologik usullari.....	110
<i>Jo'rayeva Nargiza Toirovna, Kamalova Sarvinoz</i>	
Blum taksonomiyasi asosida ilmiy kompetentlikni takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	113
<i>Mustafayeva Nilufar Ulashovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi ovoz buzulishiga ega bolalar bilan guruhli mashg'ulotlarni tashkil qilish	117
<i>Umida O'tbasarova Mexmanovna, Maksudbekova Xovvajon Xamidbek qizi</i>	
Bolalar jamoasida do'stona munosabatlarni shakllantirishda rivojlanish markazlarida loyiha asosida o'qitish texnologiyasidan foydalanish usullari	121
<i>Quronova Ismigul Xolmurod qizi</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda innovatsion metodlar orqali o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	126
<i>Rustamova Davlatxon Toyirjon qizi</i>	
Oliy ta'limda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning innovatsion modellari	131
<i>Sanayeva Surayyo Bobonazarovna</i>	
"Tibbiy radiologiya" fanini o'qitishda pedagogik muloqot orqali tanqidiy operativ muloqotni o'stirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	139
<i>Shukurova Sevara Ilhomovna</i>	
Improving High Jump Techniques	143
<i>Tajimbetov Anvar Tengelbayevich</i>	
Filologik va ijtimoiy-siyosiy fanlarda ta'lim jarayonining innovatsion metodlari.....	146
<i>Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna</i>	
Понятие логического мышления и его особенности у младших школьников.....	149
<i>Ахмаджонова Нозима Нодиржон қизи</i>	
Интеграция психологии, обучения английскому языку, дошкольного образования и туризма: междисциплинарная модель формирующего опыта	152
<i>Омонуллаева Дилофуза Асадулла қизи</i>	



Rustamova Davlatxon
Toyirjon qizi
Farg'ona davlat universiteti
"Boshlang'ich ta'lim uslubi" kafedrasida o'qituvchisi (PhD)

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA INNOVATSION METODLAR ORQALI O'Z-O'ZINI RIVOJLANTIRISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

ORCID: 0000-0002-1195-1923

Annotatsiya: Maqola o'quvchilarda o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirishda innovatsion metodlardan foydalanishning samarali yo'llarini o'rganishga bag'ishlangan. Bugungi kunda ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, o'zini anglash, o'quv faoliyatini boshqarish hamda shaxs sifatida shakllanishiga katta e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, kichik maktab bosqichida bu jarayonni to'g'ri yo'lga qo'yish kelajakdagi ta'lim sifati uchun mustahkam asos yaratadi. Maqolada kichik yoshdagi o'quvchilar uchun mos bo'lgan innovatsion metodlar – interaktiv o'yinlar, loyiha asosida o'qitish, muammoli ta'lim, tanqidiy fikrlash texnologiyalari va reflektiv yondashuvlar ko'rib chiqilgan. Shuningdek, bu metodlarning amaliyotga tatbiq etilishi va ularning o'quvchilarning o'z-o'zini rivojlantirishga qanday ta'sir ko'rsatishi tahlil qilinadi. Innovatsion yondashuvlar orqali o'quvchilarning o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirish ularning intellektual va psixologik rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mazkur metodikaning maktab amaliyotiga joriy etilishi ta'lim sifati oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: innovatsion metodlar, o'z-o'zini rivojlantirish, kichik maktab yoshi, ta'lim sifati, interaktiv metodlar, shaxsiy rivojlanish, mustaqil fikrlash, pedagogik texnologiyalar, psixologik rivojlanish.

Abstract: The article is devoted to the study of effective ways of using innovative methods in the formation of self-development skills in students. In today's educational process, great attention is paid to fostering students' independent thinking, self-awareness, ability to manage their learning activities, and personal development. It is especially important to organize this process properly at the early stage of schooling, as it lays a solid foundation for the quality of future education. The article examines innovative methods suitable for young learners, such as interactive games, project-based learning, problem-based learning, critical thinking technologies, and reflective approaches. It also analyzes the implementation of these methods in practice and their impact on students' self-development. Innovative approaches contribute to the formation of self-development skills in students, positively influencing their intellectual and psychological growth. The integration of this methodology into school practice serves as an important tool for improving the quality of education.

Key words: innovative methods, self-development, primary school age, quality of education, interactive methods, personal development, independent thinking, pedagogical technologies, psychological development.

Аннотация: Статья посвящена изучению эффективных путей использования инновационных методов в формировании навыков саморазвития у учащихся. В современном образовательном процессе большое внимание уделяется развитию у учащихся самостоятельного мышления, самосознания, способности управлять учебной деятельностью, а также становлению личности. Особенно важно правильно организовать этот процесс на начальном этапе школьного обучения, так как он закладывает прочную основу для качества образования в будущем. В статье рассматриваются инновационные методы, подходящие для младших школьников, такие как интерактивные игры, проектное обучение, проблемное обучение, технологии критического мышления и рефлексивный подход. Также анализируется внедрение этих методов в практику и их влияние на развитие навыков саморазвития у учащихся. Инновационные подходы способствуют формированию у школьников навыков саморазвития, что оказывает положительное влияние на их интеллектуальное и психологическое развитие. Внедрение данной методики в школьную практику служит важным средством повышения качества образования.

Ключевые слова: инновационные методы, саморазвитие, младший школьный возраст, качество образования, интерактивные методы, личностное развитие, самостоятельное мышление, педагогические технологии, психологическое развитие.



KIRISH

XXI asrda globallashuv, tezkor texnologik taraqqiyot va jamiyat ehtiyojlarining o'zgarishi ta'lim tizimidan mutlaqo yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Ayniqsa, ta'limning ilk bosqichi bo'lgan kichik maktab yoshidagi o'quvchilar bilan ishlashda zamonaviy, innovatsion metodlardan samarali foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda bolalarda mustaqil fikrlash, o'zini anglash, o'z ustida ishlash va rivojlanishga intilish kabi ko'nikmalarni shakllantirish nafaqat ularning maktabdagi muvaffaqiyatiga, balki kelajakda hayotda o'z o'rnini topa oladigan, ijtimoiy faol va ongli shaxs bo'lib yetishishiga xizmat qiladi. Bu borada innovatsion metodlar – interaktiv, shaxsga yo'naltirilgan, kreativ fikrlashni rag'batlantiruvchi pedagogik usullar orqali o'quvchilarda o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyati yuqori bo'lib, ularni ta'lim jarayoniga integratsiyalash muhim ilmiy-amaliy vazifa sifatida qaralmoqda.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar, xususan, "Yangi O'zbekiston maktabi" konsepsiyasi doirasida har bir o'quvchining shaxsiy salohiyatini ro'yobga chiqarishga alohida e'tibor qaratilayotgani bu mavzuning dolzarbligini yanada kuchaytiradi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar psixologik jihatdan qiziqishlari yuqori, faoliyatga oson jalb etiladigan, ammo barqaror motivatsiyani saqlab qolishda murakkab guruh hisoblanadi. Shu sababli bu yoshda o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish pedagogik jarayonni yanada samaraliroq qiladi. Ushbu tadqiqotning ob'ekti sifatida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash jarayoni qaraladi. Tadqiqot predmeti esa innovatsion metodlar orqali bu yoshdagi o'quvchilarda o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirish metodi-kasidir.

Tadqiqotning asosiy maqsadi – innovatsion metodlar asosida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali metodikani ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etishdan iborat. Shu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilangan:

- kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning psixologik-pedagogik xususiyatlarini o'rganish;
- o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmasining mohiyati va mazmunini tahlil qilish;
- bu ko'nikmalarni shakllantirishda innovatsion metodlarning o'rnini aniqlash;
- pedagogik jarayonda qo'llanilishi mumkin bo'lgan innovatsion metodlarni tizimlashtirish;
- o'quvchilarda o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metodik tavsiyalarni ishlab chiqish va taklif etilgan metodikaning samaradorligini tajriba-sinov asosida tekshirish.

Ushbu mavzuni chuqur o'rganish natijasida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda mustaqil o'rganish, o'z-o'zini tahlil qilish va o'z oldiga maqsad qo'yish kabi muhim shaxsiy sifatlarni shakllantirish imkoniyatlari kengayadi, bu esa ularning keyingi ta'lim bosqichlariga yanada puxta tayyor bo'lishlarini ta'minlaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, shaxsning o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini erta yoshdan shakllantirish masalasi G. Gardner^[3], H. Heckhausen^[4], L.S. Vygotskiy, J. Dewey^[2], C. Rogers kabi mutaxassislar tomonidan chuqur o'rganilgan. Jumladan, J. Deweyning tajribaga asoslangan ta'lim nazariyasi va C. Rogersning insonparvar yondashuvga asoslangan shaxsni rivojlantirish modeli kichik yoshdagi o'quvchilarni erkin fikrlashga, o'z qiziqishlarini anglashga yo'naltirish orqali o'z-o'zini rivojlantirishga zamin yaratadi. Howard Gardnerning ko'p intellekt nazariyasi esa har bir bola turli salohiyat va qobiliyatlarga ega ekanligini ta'kidlab, ularga mos metodlarni tanlash muhimligini asoslaydi. Bu yondashuvlar innovatsion metodlarni qo'llash orqali individual rivojlanishni ta'minlash zarurligini ko'rsatadi.

Mahalliy tadqiqotlar qatorida M. Yuldashev, N. To'rayev^[6], R. Safarova^[7], Z. Nishonova, M. Jurayev, Sh. Mirziyoyev kabi pedagog va mutaxassislarning asarlari alohida o'rin egallaydi. Jumladan, M. Yuldashevning pedagogik innovatsiyalar haqidagi qarashlarida zamonaviy metodlarning ta'lim sifati va shaxsiy rivojlanishga ta'siri chuqur tahlil qilinadi. N. To'rayev esa o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish faoliyatini shakllantirishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning samaradorligini ko'rsatadi. R. Safarova va Z. Nishonovanning ishlarida kichik maktab yoshidagi bolalarning psixologik rivojlanish bosqichlari, ularda o'z-o'zini anglash va motivatsiyani rag'batlantirishga oid qimmatli ilmiy natijalar mavjud. Shuningdek, Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning ta'lim sifati oshirish bo'yicha ilgari surgan g'oyalari, xususan, "Yangi O'zbekiston maktabi"^[1] konsepsiyasi, shaxsiy rivojlanishga qaratilgan ta'lim tamoyillarining dolzarbligini ta'kidlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Yuqorida ko'rib chiqilgan adabiyotlarda o'z-o'zini rivojlantirish masalasi keng o'rganilgan bo'lsa-da, ushbu tadqiqotning o'ziga xosligi – kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda aynan innovatsion metodlar asosida bu ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan kompleks metodikani ishlab chiqish va uni amaliyotda sinab ko'rishga qaratilganidadir. Avvalgi tadqiqotlarda ko'proq umumiy nazariy yondashuvlar yoki alohida metodlar ko'rib chiqilgan bo'lsa, mazkur ishda innovatsion metodlarning tizimlashtirilgan holda qo'llanilishi, ularning yosh xususiyatlariga mosligi va amaliy samaradorligi alohida e'tiborga olinadi. Shuningdek, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning psixologik rivojlanish bosqichlari bilan innovatsion yondashuvlarning qanday muvofiqlashtirilishi mumkinligi ham amaliy jihatdan asoslab beriladi. Mazkur ilmiy maqolani tayyorlashda tadqiqot ob'ekti va predmetining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda bir qator ilmiy-tadqiqot metodlaridan kompleks tarzda foydalanildi. Metodlar tanlovi tadqiqotning asosiy maqsadi – kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda innovatsion metodlar orqali o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metodikani ishlab chiqish va baholash bilan chambarchas bog'liq bo'ldi.

Qiyosiy taqqoslash usuli ayniqsa muhim bo'lib, u orqali turli metodlar samaradorligi konkret ko'rsatkichlar (faollik darajasi, mustaqil fikrlash, topshiriqni bajara olish qobiliyati) asosida solishtirildi. Natijada innovatsion metodlar qo'llanilgan guruhda o'quvchilarning o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalari ancha tez va samarali shakllanganligi kuzatildi. Zamonaviy pedagogikada innovatsion metodlar qo'llanilishi ta'lim jarayonining sifatini oshirish, o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ularni mustaqil fikrlovchi, faol, o'zini anglay oladigan shaxs sifatida shakllantirishda muhim vosita sifatida qaralmoqda. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirishda aynan innovatsion metodlardan foydalanish orqali yuqori natijalarga erishish mumkinligi tadqiqot davomida olib borilgan kuzatuvlar, so'rovnomal va tajriba-sinov ishlari orqali asoslab berildi.

Maqola doirasida kichik maktab yoshidagi o'quvchilar ishtirokida o'tkazilgan tajriba-sinov natijalari shuni ko'rsatdiki, an'anaviy o'qitish metodlari bilan taqqoslaganda, innovatsion metodlar o'quvchilar faoliyatini rag'batlantirish, ularning shaxsiy o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishda ancha samaraliroq ekan. Tadqiqot jarayonida jami 60 nafar kichik maktab yoshidagi o'quvchi ikki guruhga bo'lingan holda kuzatuvga olingan: birinchi (nazorat) guruhda an'anaviy metodlar, ikkinchi (eksperimental) guruhda esa innovatsion metodlar asosida o'quv faoliyati tashkil etildi. Asosiy e'tibor quyidagi ko'nikmalarni shakllantirish darajasini aniqlashga qaratilishi kerak:

- o'z fikrini mustaqil ifodalash;
- muammoni hal qilishga faol jalb etilish;
- faollik va tashabbus ko'rsatish;
- o'zini baholash ko'nikmasi;
- mustaqil qaror qabul qilish.

Innovatsion metodlar sifatida quyidagi yondashuvlardan foydalanish tavsiya etiladi:

- loyihaviy metod (project-based learning) – o'quvchilar kichik guruhlar bilan ishlagan holda, biror ijtimoiy muammoni yechishga qaratilgan mini-loyihalar ishlab chiqdilar;
- rol o'yinlari – dars jarayonida real hayotiy vaziyatlar sahnalashtirildi, bu orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlash, muloqot qilish va qaror qabul qilish ko'nikmalari rivojlandi;
- klaster va insert metodlari – axborotni tuzish, tartiblashtirish va tushunishga qaratilgan faoliyatlar orqali o'quvchilar o'z fikrlarini mantiqan ifodalashga o'rgandilar;
- bahs-munozara usuli – o'quvchilarning o'z nuqtai nazarini ishonchli himoya qilish va qarshi fikrlarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirdi.

Bunday metodlar o'quvchini faqat bilim oluvchi emas, balki uni izlovchi, yaratib beruvchi, yangilik qiluvchi subyekti sifatida shakllantiradi. Aynan shu jihat o'z-o'zini rivojlantirishning zamirida yotadi.

Bu jarayonda quyidagi muammolarga duch kelinadi:

- 1) an'anaviy metodlarga bog'lanib qolish – aksariyat boshlang'ich sinf o'qituvchilari innovatsion metodlarni to'liq o'zlashtirmagan, shuningdek, ularni amaliyotga tatbiq etishda qiyinchiliklarga duch kelishmoqda;
- 2) o'quvchilarni passiv tinglovchiga aylantirish – an'anaviy darslarda o'quvchilar faqat tinglovchi rovida bo'lib, bu ularning faolligini susaytiradi, o'z fikrini bildirishga jur'at yetmaydi;



- 3) o'quv-uslubiy materiallar yetishmasligi – innovatsion metodlarga mos o'quv materiallari, topshiriqlar, baholash mezonlari hali to'liq ishlab chiqilmagan;
- 4) baholash tizimi muammolari – o'quvchilarning o'z-o'zini baholash va refleksiya qilish ko'nikmalari sust rivojlangan, bu esa ularning shaxsiy o'sish yo'nalishlarini aniqlashni qiyinlashtiradi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- 1) o'qituvchilar uchun innovatsion metodlarga oid amaliy seminar-treninglar sonini ko'paytirish;
- 2) boshlang'ich sinf darsliklari va metodik qo'llanmalarini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida qayta ko'rib chiqish;
- 3) har bir dars uchun mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish, muammo yechishga qaratilgan topshiriqlarni ishlab chiqish va ularni dars jarayoniga tatbiq etish;
- 4) o'quvchilarda o'z-o'zini baholash va refleksiya ko'nikmalarini shakllantirish uchun maxsus dasturiy yo'nalishlar ishlab chiqish.

TAHLIL VA NATIJALAR

Umumlashtirilgan holda aytish mumkinki, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirishda innovatsion pedagogik metodlarning roli beqiyosdir. Mazkur metodlar ta'lim jarayonini faqat bilim berishga emas, balki o'quvchining ichki intilishlarini uyg'otish, o'z-o'zini anglash, o'zini baholash, mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltiradi. Tahlil qilingan tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki, an'anaviy yondashuvlarga asoslangan ta'lim jarayonida o'quvchilarning faolligi, mustaqilligi va ijodkorligi nisbatan sust bo'lsa, innovatsion metodlar orqali tashkil etilgan o'quv faoliyati ushbu ko'nikmalarni yuqori darajada shakllantirgan.

Tadqiqot davomida nazorat va eksperimental guruhlar faoliyati o'rtasidagi qiyosiy tahlillar orqali aniqlanganiki, innovatsion metodlar qo'llanilgan guruhda o'quvchilarning o'z fikrini mustaqil ifodalash darajasi, muammoli vaziyatlarda ishtirok etish qobiliyati, o'zini baholash va mustaqil qaror qabul qilish kabi shaxsiy ko'rsatkichlari sezilarli darajada oshgan. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim mazmunining o'z-o'zini rivojlantirishga xizmat qiluvchi jihatlardan boyitilishi kerakligini anglatadi. Jumladan, boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan innovatsion metodlarga yetarli darajada tayyor emaslik, ularni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha metodik ko'nikmalar va vositalarning yetishmasligi, o'quvchilarning shaxsiy faolligini rag'batlantiradigan o'quv topshiriqlari yetarli emasligi kabi holatlar ko'zga tashlandi.

Shuningdek, baholash tizimida ham o'z-o'zini rivojlantirishga oid ko'nikmalarni o'lchovchi mezonlarning yo'qligi yoki sustligi muammo sifatida e'tirof etildi. Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi takliflar asosli deb hisoblanadi. Avvalo, o'qituvchilarni zamonaviy pedagogik metodlar asosida muntazam ravishda tayyorlash va qayta tayyorlash, ular uchun maxsus treninglar hamda amaliy seminarlar tashkil etish lozim. Shu bilan birga, innovatsion metodlarga mos dars ishlanmalari, o'quv topshiriqlari banki va metodik qo'llanmalarni ishlab chiqish hamda ularni o'quv jarayoniga joriy etish zarur. Boshlang'ich ta'lim darajasida o'quvchilarni mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish va o'zini baholashga o'rgatishga qaratilgan mashg'ulotlar va topshiriqlar sonini oshirish ta'lim samaradorligini yanada oshiradi. Shuningdek, o'quvchilarning individual imkoniyatlariga mos yondashuvni yo'lga qo'yish, ularning qiziqish va ehtiyojlarini hisobga olgan holda differensial topshiriqlar bilan ishlash, har bir o'quvchining ichki salohiyatini ochishga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, o'z-o'zini rivojlantirish jarayonini shaxsga yo'naltirilgan holda tashkil qilish imkonini beradi. Ta'lim muhitini insonparvarlik tamoyillari asosida tashkil qilish, texnologik vositalardan foydalanish va o'quvchini faol subyekti sifatida shakllantirish muhim rol o'ynaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarni hayotga tayyorlash, ularning shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ayniqsa, o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirish zamonaviy ta'limning muhim vazifalaridan biridir. Ushbu vazifani muvaffaqiyatli amalga oshirishda innovatsion pedagogik metodlardan samarali foydalanish muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim mazmunini yangilash, metodik ta'minotni takomillashtirish, o'qituvchilar malakasini oshirish va baholash tizimini yangicha yondashuvlar asosida tashkil qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu asosda aytish mumkinki, ta'lim jarayonida innovatsion metodlarning keng joriy etilishi o'quvchilarning nafaqat o'quv motivatsiyasini, balki ularning kelajakda muvaffaqiyatli, mustaqil, o'zini rivojlantira oladigan shaxs sifatida shakllanishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev, Sh. M. (2020). Yangi O'zbekiston – yangicha maktab: Ta'lim sifatini oshirish va shaxsiy rivojlanishga qaratilgan tamoyillar. Prezident matbuot xizmati, 1(1), 1–50.
2. Dewey, J. (1938). Experience and education. Macmillan, 1(1), 1–62.
3. Rogers, C. R. (1969). Freedom to learn: A view of what education might become. Charles E. Merrill, 1(1), 1–320.
4. Gardner, H. (1983). Frames of mind: The theory of multiple intelligences. Basic Books, 1(1), 1–528.
5. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. Harvard University Press, 1(1), 1–159.
6. Heckhausen, H. (1991). Motivation and action. Springer-Verlag, 1(1), 1–600.
7. Yuldashev, M. (2019). Pedagogik innovatsiyalar va zamonaviy ta'lim texnologiyalari. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, 1(1), 1–230.
8. To'rayev, N. (2020). Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvining o'quvchilar mustaqil ta'lim olish faoliyatiga ta'siri. Pedagogik mahorat, 4(1), 45–52.
9. Safarova, R., & Nishonova, Z. (2021). Kichik maktab yoshidagi bolalarda psixologik rivojlanish xususiyatlari va o'z-o'zini anglash jarayoni. Psixologiya va ta'lim, 2(3), 33–40.
10. Mirziyoyev, Sh. M. (2020). Yangi O'zbekiston – yangicha maktab. Prezident matbuot xizmati, 1(1), 1–50.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.